

AZMU SHIJOATLI YOSHLARIMIZNING ZAMONAVIY BILIMLARNI EGALLAB ERISHAYOTGAN MUVAFFAQIYATLARI YANGI O'ZBEKISTON KELAJAGIGA TAYANCH

30-iyun kuni mamlakatimizda Yoshlar kuni keng nishonlandi.

Asosiy bayram tadbirlari Toshkentdagi
Xalqaro kongress markazida bo'lib o'tdi.

O'zbekiston yoshlarini tabriklash va qo'llab-quvvatlash uchun bu yerga Prezident Shavkat Mirziyoyev tashrif buyurdi.

Kongress markaziga kiraverishda yoshlarning turli sohalaridagi loyihalari, kashfiyot va yutuqlari taqdimot qilindi. Masalan, "Yosh innovatorlar" ko'rgazmasida muhandislik, raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt, uchuvchisiz qurilmalar namoyish etilgan. "Yashil" tashabbuslar maydonchasida ekologiya, muqobil energetika, qishloq xo'jaligi kabi sohalariga oid ishlanmalar ko'rsatilgan. "Kreativ loyihalar" bo'limidan hunarmandlik, dizayn, tasviriy san'at, video va produserlik faoliyatidagi yutuqlar o'r'in olgan. "Yoshlar tadbirkorligi va startaplar" maydonchasida ushbu yo'nalishdagi muvaffaqiyatli loyihalar haqida ma'lumot berilgan.

Jumladan, toshkentlik Rustam Hamdamovning "Billz" dasturi kichik va o'rta biznesni avtomatlashtirishga yordam beradi. Hozirgacha bu loyihaga Buyuk Britaniya, Singapur, Turkiya ishbilarmonlari 6 million 600 ming AQSH dollari miqdorida investitsiya kiritgan.

Qoraqalpog'istonlik yosh fermer Sherzod Niyazimbetov organik pomidorlar yetishtirib, quyoshda quritib va qadoqlab, Italiya hamda Fransiya kabi davlatlarga eksport qilmoqda. Uning korxonasida 200 nafarga yaqin xodim ishlayotgan.

O'zbekiston Prezidentining 2019 yildagi qarori bilan tashkil etilgan Yoshlar akademiyasi bugungi kunda 7 mingdan ziyod yosh olimlarni birlashtirgan. Ko'rgazmada ular uchun keng o'r'in ajratilgan. Toshkentlik Sayfullo Qodirov

ekin maydonlarini raqamli xaritalash va yuqoridan dori sepih imkonini beruvchi dronlar yasangan.

Olimlar orasida "Raqamli avlod qizlari" tanlovi g'olibalari ko'pligi ham diqqatga sazovor. Xorazmlik Lobar Abdullayeva onkologik kasalliklarga sun'iy intellekt orqali tashxis qo'yishga mo'ljallangan "AI Scan" dasturini ishlab chiqqan. Qoraqalpog'istonlik Qumara Sagidullayeva quyosh energiyasida yuruvchi kichik traktor, toshkentlik Abdulloh Jamoliddinov bog'ni avtomatik sug'orish tizimini ixtiro qilgan.

Davlatimiz rahbari mazkur taqdimotlar bilan tanishib, ularning tashabbuskorlari bilan mulot qildi.

(Davomi 3-sahifada) ▶

▼ Эътибор

ЯНГИ УЙ
МУБОРАК,
Фотима!

Президентимиз топширигига мувофиқ, велоспорт бўйича Ўзбекистон миллий паралимпия терма жамоаси аъзоси Фотима Саиповага Чирчиқ шаҳри "Ифтихор" маҳалласидаги янги кўп қаватли уйдан икки хонали хонадон топширилди.

4

ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI ПРЕЗИДЕНТИ ШАВКАТ МИРЗИЁЕВНИНГ ЁШЛАР КУНИГА БАҒИШЛАНГАН ТАНТАНАЛИ МАРОСИМДАГИ НУТҚИ

Қадрли фарзандларим!
Аввало, сиз, азиз ўғил-қизларимни, сизларнинг тимсолингизда бутун Ўзбекистон ёшларини қутлуг айём – Ёшлар куни билан чин қалбимдан самимий муборакбод этаман.

Сиздек навқирон авлод вакиллари бугун мана шундай азло кайфиятда кўриб турганимдан бениҳоя хурсандман.

Кейинги йилларда иқтисодиёtimиз тез суръатлар билан ўсиб, барча соҳаларда имкониятларимиз ортиб бораётганида, ҳеч шубҳасиз, сиз ёшларнинг ҳам муносиб ҳиссангиз бор.

Бир сўз билан айтганда, бизнинг бебаҳо бойлигимиз ҳам, келажак учун энг катта дивидендимиз ҳам, ёшлар, десак, тўғри бўлади. Биланда куч-ғайрат, ҳар бир ҳаракатида азму шижоат жўш урган йигитларимизни, билим ва одобда, ақл-заковатда тенгсиз қизларимизни кўриб, ҳар қандай халқ, ҳар қандай давлат бизга ҳавас қилса арзийди.

Катта-катта давлатлар, дунёнинг энг нуфузли компаниялари бугун бизга нега ишонмоқда? Нега миллиардлаб доллар инвестициялар киритмоқда?

Бу, албатта, бежиз эмас. Чунки ҳамкорларимиз ёшларимизнинг илм-фан, таълим, IT, маданият, санъат ва спортдаги ютуқларини кўриб, салоҳиятимизга баҳо бермоқда, эртанги кунимиз пойдевори мустаҳкам эканига ишонч ҳосил қилмоқда.

Биз ислохотларимизни бошлаган илк кунларданоқ "илм – тарбия – инновация" занжирини яратибга киришдик. Бу йўлдаги ҳаракатларимиз бугун аниқ натижалар бермоқда.

Мана, бир мисол. Ўтган йили юртимиз ёшлари ТОП-500 талик олий-

гоҳларга кириш бўйича Марказий Осиёда 1-ўринни эгаллади. Билимли ёшларимиз илк бор ТОП-5 таликдаги олийгоҳларга кириб, тарихий натижа қайд этганлари ҳам барчамизни қувонтиради. Бугунги кунда 30 нафар ёшларимиз дунёнинг ТОП-10 талик олийгоҳида, 500 нафари ТОП-100 ва 1 минг 500 нафари ТОП-300 таликдан жой олган нуфузли университетларда таҳсил олмоқда.

Ушбу муҳташам залда ўтирган Жасурбек Умаров – Гарвард университети, Рухшона Собирова – Пенсильвания, Асилбек Ашуров – Чикаго университети бу йил 100 фоиз грант асосида ўқишга киргани таълимдаги ислохотларимиз нақадар натижадор бўлаётганига яққол далилдир.

Яқинда бутун юртимизда барчамиз узоқ кутган катта футбол байрами бўлиб ўтди. Халқимизнинг 34 йиллик орауси ушалди – миллий терма жамоамиз тарихда илк бор жаҳон чемпионати йўлнамасини қўлга киритди.

Яқин-яқингача умрини пахта даласида ўтказган оддий оила фарзандлари илмда, спортда, бошқа соҳаларда бундай юксак марраларни эгаллашнинг тасаввур қилиш ҳам қийин эди. Биз ёшларимиз учун шароит яратдик, улар бундан унумли фойдаланиб, баланд чўққиларни забт этмоқда.

Бугун сизлар каби зехни ўткир, меҳнатсевар ва фидойи фарзандларимга қараб, орангиздан физика, кимё, тиббиёт, иқтисодиёт, адабиёт бўйича янги Хоразмийлар, Беруний, Ибн Сино, Улуғбек ва Навоийлар етишиб чиқишига албатта ишонаман.

(Давоми 2-саҳифада) ▶

VATANING YUKSAK E'TIROFI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlar kuni munosabati bilan yurtimizning faol va tashabbuskor yosh avlod vakillaridan bir guruhini mukofotlash to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq, mamlakatimizda yosh avlodni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning davlat va jamiyat hayotidagi faolligini oshirish maqsadida o'zining yuksak azmu shijoati, ijodiy va intellektual salohiyati, iste'dod va qobiliyatini namoyon etib, halol va samarali mehnati, turli sohalarida erishgan yutuqlari bilan yurtimiz taraqqiyotiga, uning xalqaro obro'-e'tiborini yanada yuksaltirishga munosib hissa qo'shayotgan, ona Vatanimizga mehri va

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ПРЕЗИДЕНТИ ШАВКАТ МИРЗИЁЕВНИНГ ЁШЛАР КУНИГА БАҒИШЛАНГАН ТАНТАНАЛИ МАРОСИМДАГИ НУТҚИ

Биринчи ва Иккинчи Ренессансни буюк аллома ва мутафаккирларимиз яратган бўлса, бугун тарих навбатини сизларга бермоқда. Ишончим комил, сизлар барча соҳаларда мамлакатимиз байрогини баланд кўтаришга қодирсиз.

Сизлар – Янги Ўзбекистон бунёдкорлари сифатида янги тарих яратадиган олтин авлодсиз!

Фурсатдан фойдаланиб, мана шу қувончли айёмда Ватанимиз равнақи йўлида интилиш, илм олиш ва меҳнат қилишдан чарчамайдиган барча ёшларимизга, билимли, тарбияли ва соғлом фарзандларни камолга етказётган ота-оналарга, катта ҳаётта қадам қўйишларида ёшларга энг яқин маслаҳатчи бўлаётган ҳурматли устоз ва мураббийларга самимий миннатдорлигимни билдираман.

Азиз ўғил-қизларим!

Ҳозирги вақтда дунё қандай нотинч, қандай мураккаб бўлиб бораётганини кўриб турибмиз. Тинчлик – энг буюк нёзмат, инсон қадри ва адолат – энг олий қадрият эканини ҳар қачонгидан ҳам чуқур ҳис этмоқдамиз.

Алишер Навоий бобоимизнинг **“Билим хазинасини ёшиққа тўпла”**, деган сўзларида албатта жуда чуқур маъно бор. Чиндан ҳам, илм ва маърифат билан қуролланган, ватанпарвар халқ ҳар қандай синовлардан муносиб ўта олади. Юксак билимли, дунёқарашли кенг, замонавий фикрлайдиган, технологик жиҳатдан саводхон ёшлари кўп бўлган юртда тинчлик ва тараққиёт, ўзаро жипслик ҳамisha барқарор бўлади.

Ёшларимизга сифатли таълим ва тарбия бериш, замонавий касб ва ҳунарлар, хорижий тилларни ўргатиш, ҳаётда муносиб ўрин топиши учун зарур шароитлар яратиши – энг асосий вазифамиз ва бурчимизга айланган.

Мавжуд имкониятлардан самарали фойдаланиб, ҳудудини намунали қилган вилоят ва туманларимиз кўп. Мисол учун, ёш тадбиркорларимиз ташкил қилган 261 та корхонанинг йиллик обороти 100 миллиард сўмдан ошди.

Илгари бу борада фақат Тошкент шаҳри якка ҳолда пешқадамлик қилган бўлса, бугунги кунга келиб, Тошкент вилояти, Самарқанд, Андижон, Наманган ва Фарғона ёшларининг бизнесдаги натижалари ҳам пойтахтдан қолишмапти.

Қорақалпоғистон, Қашқадарё, Навоий, Сирдарё ва Хоразм ёшлар бандлигини таъминлаш бўйича илгор ҳудудларга айланди. Ёки ёшларнинг олийгоҳга кириш кўрсаткичи бўйича Сурхондарё бир йил давомида 11-ўриндан 4-ўринга кўтарилиб, катта сакрашга эришди. Жиззах ва Сирдарё вилоятлари ҳам бу борада яхши натижа қўрсатмоқда.

Икки йил олдин хиллари катан олимпиадаларида 7 та ҳудуддан 45 нафар ўқувчи соврин олган бўлса, ўтган 6 ойда уларнинг сафига Жиззах, Андижон, Наманган, Самарқанд, Сурхондарё, Хоразм, Тошкент вилоятлари ўқувчилари ҳам қўшилиб, жами 166 та медаль кўлга киритилди.

Бошқа бир мисол. Ўтган йили 150 мингдан зиёд ёшларимиз халқаро йил сертификатларини олди. Бу – 2023 йилга нисбатан 2 баробар кўп. Хорижий тилларни мукаммал билиш (Си-1) бўйича Тошкент шаҳри, Фарғона, Наманган, Бухоро ва Самарқанд вилоятлари ёшлари анча илгирилаб кетганини таъкидлаш лозим.

Катта салоҳиятга эга бўлган туманлар ёшларни тилга ва замонавий касбларга ўргатиб, ишли қилиш, олий таълим билан қамраб олиш бўйича Бектемир, Зафаробод, Қоровулбозор ва Арнасойдан ўрнак олиши керак.

Шу ўринда 2 та масаллага алоҳида урғу бериб ўтмоқчиман.

Биринчидан, албатта, ёшларнинг тилини ёшлар тушунади, улар бир-биридан ўрнак олади, бир-бирига мотивация беради.

Шу боис, 9 мингдан зиёд маҳаллада ёшлар етакчилигини тингилдади. Улар уч йил давомида кўп нарсани ўрганди, етарли тажриба орттирди. Энди улар мактаб, техникум, тил ва касб марказлари билан ҳам ишлашни ўрганишлари лозим.

Ёшлар етакчилари ҳар ҳафта мактаб директорлари, синф раҳбарлари, ота-оналар билан учрашиб, қўшимча тил ва касбларга қизиқиши, ишлашга хоҳиши бор ўқувчиларни аниқлайди, ҳоким ёрдамчилари кўмағида ўз ҳудудидagi корхоналар, тил ва касб марказлари билан гаплашиб, ўқувчиларни уларга боғлаб беради, спорт ва фанларга қизиқади-ганларни тўғарақларга жалб этади. Ушбу тадбирлар учун “Ёшлар дафтари” орқали берилган маблағларни ишлатади.

Иккинчидан, маҳаллаларимизда 167 минг нафар уюшмаган ёшларимиз, тарбияси оғир ва ҳуқуқбузарлик қилган 17 минг ўқувчи борлиги ҳаммаимизни ўйлантириши керак.

Айниқса, кўп соҳаларда илгор бўлган Андижон, Хоразм, Қорақалпоғистон ва Бухорода бундай ёшларнинг улуши юқорилиги уларга албатта ярашмайди.

(Давоми. Бошланиши 1-саҳифада)

Кейинги пайтда ёшлар орасида гиёҳвандлик, руҳиятга таъсир қиладиган “таблетка”лар истеъмол қилиш тарқалиб бораётгани мудҳиш бир бало, десак, тўғри бўлади.

Шу ўринда янги сайланган маҳалла раисларига мурожаат қилмоқчиман. Маҳалладаги тинчлик, ҳамжихатлик, меҳр-оқибат, соғлом муҳит кимга боғлиқ? Аввало, сизларга боғлиқ. Маҳалла раиси фақатгина “оқсоқол” эмас, ёшларнинг энг яқин дўсти, сирдоши, кўмакдоши. Маҳалла раиси – бу маҳалланинг виждони. Маҳаллада битта бўлса ҳам боланинг нотўғри йўлга кириши сизлар учун фавқулдод ҳолат бўлиши керак.

Шунинг учун ҳар бир бола ҳақида, унинг тақдири, келажаги ҳақида аввало сизлар кўпроқ қайғуришингиз лозим. Маҳалла раислари ёшлар билан тез-тез мулоқот қилиб, ишсиз юрганини маҳалласидаги 10-20 нафар яхши тадбиркорга боғлаб қўйса, илм оламан, IT билан шуғулланаман, китоб ўқийман, спортга бораман, деганига шароит яратиб берса, биласизларми, вазият қандай ўзгаради, ота-оналарнинг оғирини қанча енгил қиламиз! Бундай эзгу ишларимиз Яратганга ҳам, халқимизга ҳам албатта маъқул бўлади.

Сизлар бу вазифаларни удалашингизга ишонаман. Бунинг учун сизларда билим ҳам, тажриба ҳам, куч-ғайрат ҳам етарли. Энг муҳими, одамлар сизларга ишонади, сизларга эргашади.

Бир ҳақиқатни аниқ тушуниб олишимиз зарур. Боланинг ёмони бўлмайди. Уларга катталарнинг меҳри, имкониятларини намоян қилишлари учун шароит, ўзига ишонч бўлиши учун мотивация керак.

Мисол учун, Тадбиркорлик жамоатчилик кенгаши аъзолари – 108 нафар “чемпион” тадбиркоримиз ўзларининг 308 та корхонаси атрофидаги мактабларга бориб, юқори синф ўқувчиларини касбга қизиқтираётгани таҳсини сазовордир.

Энг муҳими, бу ўқувчиларнинг аксарияти келажақда ҳаётини қайси касб билан боғлаш ҳақида аниқ тасаввурга эга бўл

AZMU SHIJOATLI YOSHLARIMIZNING ZAMONAVIY BILIMLARNI EGALLAB ERISHAYOTGAN MUVAFFAQIYATLARI YANGI O'ZBEKISTON KELAJAGIGA TAYANCH

– Yoshlarimizning har bir muvaffaqiyati biz uchun kuch-qudrat, mamlakatimiz kelajagiga tayanch. Bugun farzandlarimiz zamonaviy yo'nalishlarni egallab, ancha ilgari lab ketyapti. Ularni qo'llab-quvvatlasak, sifatlil ta'lim berib, sharoit yarat-sak, bundan ham katta natijalarga erishadi, – dedi Shavkat Mirziyoyev.

Mutasaddilarga ixtirochi yosh-larni tegishli vazirliklarga birlashtirib, loyihalarni rivojlantirish bo'yicha ko'rsatma berildi.

Yurtimizda bunday iqtidorli o'g'il-qizlar ko'p. Bu ta'lim sohasiga, ayniqsa, STEAM yo'nalishlariga qaratilayotgan e'tibor natijasi. So'nggi yillarda matematika, fizika, kimyo va axborot texnologiyalariga ixtisos-lashgan ko'plab maktablar tashkil etildi.

Yosh tadbirkorlar tashkil qilgan 261 ta korxonaning yillik aylanmasi 100 milliard so'mdan oshgan. Starta-plarni moliyalashtirishga 145 million dollar venchur sarmoya kiritilgan.

Shundan so'ng Prezident Shavkat Mirziyoyev Xalqaro kongress markazida 30 iyun – Yoshlar kuni munosabati bilan o'tkazilgan uchrashuvda nutq so'zledi. O'zbekis-ton yoshlarini ushbu qutlug' ayyom bilan tabriklab, ularga mehri va ishonchini bildirdi.

Mamlakatimizda yoshlarga yara-tilayotgan sharoitlar aniq natijalar berayotgani qayd etildi. O'tgan yili yurtimiz yoshlari TOP-500 talik oliy-gohlarga kirish bo'yicha Markaziy Osiyoda birinchi o'rinni egalladi. Bugungi kunda 30 nafar yigit-qiz dunyodagi TOP-10, 500 nafari TOP-100 va 1 ming 500 nafari TOP-300 dan joy olgan nufuzli universitetlarda tahsil olmoqda.

Yurtdoshlarimiz san'at, sport so-halarida ham katta muvaffaqiyatlar-ga erishmoqda. Yaqinda futbol bo'y-i-cha milliy terma jamoamiz tarixida ilk bor jahon chempionati yo'llanmasini qo'lga kiritdi.

– Birinchi va ikkinchi Renessans-ni buyuk alloma va mutafakkirlarimiz yaratgan bo'lsa, bugun tarix navbat-ni sizlarga bermoqda. Ishonchim komil, sizlar barcha sohalarida mam-lakatimizni bayrog'ini baland ko'tarish-ga qodirsiz. Sizlar – Yangi O'zbekis-ton bunyodkorlari sifatida yangi tarix yaratadigan oltin avlodsiz, – deya ta'kidladi Prezident.

Yoshlarga sifatlil ta'lim-tarbiya berish, xorijiy tillarni o'rgatish, kasb egallab, hayotda munosib o'rin topishiga ko'maklashish – davla-

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada)

timizning asosiy vazifasiga aylan-gan. Bunda zamon talabidan kelib chiqib, zarur sharoitlar yaratilmoqda. Jumladan, "Bir million dasturchi" loyihasi doirasida 325 ming yoshlar o'qitilgan. O'tgan yili 150 mingdan ziyod yigit-qiz xalqaro til sertifikat-lari olgan, bu – 2023 yilga nisbatan 2 baravar ko'p.

Bu yil 35 milliard dollarlik 8 ming 300 ta loyiha orqali 292 mingta ish o'rni yaratilmoqda. Yana 500 ming-ta ish o'rni yaratadigan 83 milliard dollarlik loyihalar rejalashtirilgan. Natijada "yashil" iqtisodiyot, sanoat, energetika, geologiya, muhandislik va boshqa sohalarida minglab mu-taxassislarga talab paydo bo'ladi.

Uchrashuvda davlatimiz rahbari yoshlarga imkoniyatlarni kengay-tirishga qaratilgan muhim tashab-buslarni bildirdi.

Xususan, Prezidentimiz farmoni bilan Beruniy nomidagi xalqaro mak-tab tashkil etildi. Unga 8-sinf bitiruv-chilari orasidan 60 nafar o'quvchi saralab olinib, 3 ta yo'nalishda chuqurlashtirib o'qitiladi.

Milliy dastur asosida har yili eng salohiyatli 3 ming o'quvchi tanlanib, Garvard, Yel, Kolumbiya, Kornel kabi dunyoning nufuzli oliygohlariga tayyorlanadi. Shundan kamida 300 nafari ehtiyojmand oila farzandlari bo'ladi.

Nufuzli xorijiy oliygohlarga kira-yotgan barcha yoshlar ham 100 foizlik grant olish imkoniyatiga ega emas. Shu bois, endi "Ei-yurt umi-di" jamg'armasi tomonidan TOP-300 talik oliygohga kirganlarning o'qish va yashash xarajatini qoplash tizimi yangi tartibda ishlay boshlaydi.

Eng avvalo, ilm-fan, texnologiya, muhandislik va matematika, ener-getika, transport, urbanizatsiya, arxitektura, qurilish, qishloq va suv xo'jaligi kabi drayver sohalar uchun kvotalar oshirilmoqda. Endi banklar TOP-300 talik oliygohga kirgan yoshlarga 20 ming dollargacha imti-yozli kredit beradi.

Sun'iy intellektni rivojlantirish bo'y-i-cha bank-moliya, sog'liqni saqlash, qishloq xo'jaligi va energetika ustuvor yo'nalish sifatida belgilanib, 100 ta loyiha amalga oshiriladi. Birlashgan Arab Amirliklari bilan hamkorlikda "Bir million sun'iy intellekt yetakchilari" dasturi ishga tushiriladi.

Massachusetts texnologiya insti-tutining sun'iy intellekt ta'lim dasturi asosida informatika o'quv dasturlari yangilanadi. Viloyatlardagi informa-tika o'qituvchilari Yangi O'zbekiston universitetida ushbu dasturga o'qiti-ladi.



"Raqamli avlod qizlari" tanlovida ta'lim, sun'iy intellekt, "yashil" iqtisodiyot, iqlim o'zgarishi kabi sohalar-da 7 ming o'quvchi va talabaning 120 ta startap loyihasi tanlab olindi. Joriy yil bu loyihaga kamida 50 ming nafar qizlar qamrab olinadi.

Startaplarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha tizim yaratilib, ularni moliya-lashtirishga 145 million dollar ven-chur sarmoya kiritildi. Endi bu mablag' 1 milliard dollarga yetkazi-ladi. Maktablarda o'quvchilar uchun "mohirlik va biznes soati" kiritilib, ularning g'oyasini startapga aylanti-rishga 100 milliard so'm grant yo'nal-tiriladi.

Oliyoghlr o'rtasida ham star-taplar bo'yicha har yili "Eng yax-shi kreativ g'oya" tanlovi o'tkazilib, g'oliblarga oliygoh jamg'armasidan 300 million so'ngacha grant beriladi.

Startapni prototipga aylantirish va sinovdan o'tkazish uchun Innovat-siya agentligi va IT-park tadqiqot va taraqqiyot markazini ochadi. Bunda, eng yaxshi loyihalar bo'yicha pro-totip yaratish xarajatining 50 ming dollargacha qismi Yoshlar venchur jamg'armasidan qoplanadi.

Endi sanoat, servis, tadbirkorlik va qishloq xo'jaligida band yosh-larning kasbiy rivojlanishi bo'yicha ham tizim yaratiladi. Har bir kasb yo'nalishi bo'yicha yoshlar o'rtasida respublika musobaqalari o'tkaziladi. Bunda davlat korxonalari va xususiy sektor vakillari tengma-teng ishtirok etadi.

Tarmoq rahbarlari har yili o'z

tizimidagi 100 nafar yoshni seleksiya qilib, xorijiy stajirovkaga yuborishni yo'lga qo'yadi. Buning uchun, har bir tarmoq 10 milliard so'mdan ajratadi.

Ma'lumki, maktab bitiruvchi-lari hamda talabalarning bandligini ta'minlash bo'yicha ikkita dastur qa-bul qilingan. Shu maqsadda "Aloqa-bank" va Milliy bankka 300 million dollar ajratilgan. Ular "Yoshlar biz-nesi" dasturi doirasida 100 ming yosh-larni, "Kelajakka qadam" orqali 140 ming oliygoh bitiruvchisini daromadli ish bilan ta'minlashga mas'ul bo'ladi.

Bandlik vazirligi, Savdo-sanoat palatasi Milliy bank bilan birga yil yakunigacha oliygoh, texnikum, kas-biy ta'lim bitiruvchilarini ish beruvchi-lar bilan bog'laydigan platformani ishga tushiradi. "Harakatda daro-mad" elektron tizimi yaratilib, ta'til-dagi 3 million yoshlar malaka talab qilmaydigan ishlarga jalb qilinadi.

So'nggi yetti yilda boshqaruv kadrlari tarkibi ancha yosharib, 40 yoshgacha bo'lgan rahbarlar ulushi 37 foizdan 65 foizga oshdi. O'tgan oyda istiqbolli kadrlar tayyorlash va ularni davlat boshqaruviga jalb etish bo'yicha Prezident farmoni imzolandi.

Endi Davlat siyosati va boshqaru-vi akademiyasida "Kelajak liderlari" dasturi bo'yicha har yili 100 nafar sa-lohiyatli yoshlar o'qitiladi. Ular vazir va hokimlarga birlashtirilib, tajriba orti-r

ЯНГИ УЙ МУБОРАК, Фотима!



Таъкидлаш жоизки, давлатимиз раҳбари Ёшлар куни муносабати билан ўтказилган учрашувда Фотима Саиповани табриклаб, спортда эришган ютуқлари учун "Келажак бунёдкори" медали билан мукофотладилар. Шунингдек, паралимпиячи-га уй совға қилдилар.

Шу муносабат билан ташкил этилган тадбирда Ташкент вилояти ҳокими Зойир Мирзаев, ҳудуд фаоллари, нуронийлар, спортчининг яқинлари қатнашди.

Вилоят ҳокими бошчилигидаги фаоллар янги хонадонда меҳмон бўлиб, спортчи ва унинг оила аъзолари билан суҳбат-

(Давоми. Бошланиши 1-саҳифада)



лашишди. Фотиманинг ютуқларини эътироф этиб, келгуси фаолиятига омад тилашди. Шунингдек, янги хонадондаги шароитлар билан танишишди.

— Президентимиз билан учрашиш мен учун катта шараф бўлди, — дейди Фотима. — Тантанали маросимда исм-фамилиямни ўқишганида ҳаяжондан кўзларим ёшланди. Давлатимиз раҳбарининг чексиз меҳрларини ҳис қилдим. Бугун эса вилоятимиз ҳокими қўлидан янги уй қалитларини олдим. Менга кўрсатилган эътибор ва ғамхўрлик учун Президентимизга катта раҳмат.

Фотиманинг онаси Нилуфар Саипованинг таъкидлашича, қизи болалигидан мустақил бўлишга, уй юмушларида кўмаклашишга ҳаракат қилади.

— Қизим велоспорт билан 4 йилдан бери шугулланади, — дейди Н.Саипова. — Илк бор Италияда ўтказилган чемпионатда қатнашиш учун кетганида роса хавотир олгандим. Бироқ унга ишонганман. Қизим жуда иродали.

— Шогирдимдан жуда хурсандман, — дейди велоспорт бўйича Ўзбекистон миллий паралимпия терма

жамоаси бош мураббийи Дилмурод Сидиков. — Фотима тиришқоқлиги, бир сўзилиги билан ажралиб туради. У велосипедни маҳорат билан бошқаради. Аини пайтда у Австралида ўтказиладиган Жаҳон чемпионатида тайёргарлик кўрмоқда.

Тадбирда қатнашган нуронийлар Фотимани дуо қилиб, келгуси фаолиятида омад тилашди.

Нигора ЎРОЛОВА,
"Ташкент ҳақиқати"
муҳбири
Жалолiddин ЭСОНОВ
олган суратлар

INNOVATSIYA MARKAZI ISHGA TUSHDI

Markaz zamonaviy kompyuter texnikalari, laboratoriya uskunalari va jihozlar, zarur infratuzilmalar bilan to'liq ta'minlangan. Endilikda yoshlar ushbu markazda nazariy bilimlarni amaliy mashg'ulotlar bilan mustahkamlash, ilmiy izlanishlar olib borish, innovatsion loyihalar ustida ishlash hamda o'z g'oyalari hayotda sinab ko'rish imkoniyatiga ega bo'ladi.

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada)



Markazda iqlimga mos agrotekhnologiyalar, raqamli qishloq xo'jaligi yechimlari, barqaror veterinariya amaliyotlari, agrobiznes va yoshlar tadbirkorligi kabi sohalar bo'yicha faoliyat olib borish rejalashtirilgan.

Tadbirda BMT Taraqqiyot Dasturining O'zbekistondagi doimiy vakili Akiko Fudzi xonim o'z fikrlarini bildirdi. Xususan, mazkur tashabbus yoshlarga nafaqat zamonaviy



bilim va ko'nikmalarni, balki yangi imkoniyatlar, ilhom va amaliy tajriba maydonini ham taqdim etishi ta'kidlandi.

Qayd etilishicha, endi markaz ishtirokchilari EU-AGRIN loyihasi doirasida Toshkent,

Farg'ona va Qashqadaryo viloyatlarida tashkil etilgan 18 ta innovatsion guruh bilan hamkorlik qilish hamda ularning faoliyatida bevosita ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa yoshlar uchun

mintaqalararo tajriba almashinuvi, amaliy bilimlarni mustahkamlash va innovatsion hamkorlikni kengaytirish borasida muhim poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Abdulaziz MUSAYEV

Toshkent davlat agrar universitetida ta'lim jarayonini xalqaro andozalar asosida rivojlantirish, Yevropaning yetakchi agrar ta'lim muassasalari bilan hamkorlikni mustahkamlash – ustuvor vazifalardan biriga aylangan. Ana shu

yo'nalishda olib borilayotgan ishlar va istiqbol rejalari xususida universitet rektorining xalqaro maslahatchisi, Vengriyaning MATE universiteti professori Zoltan Lakner bilan suhbatlashdik.

▼ Fan va ta'lim

XALQARO HAMKORLIK – MUVAFFAQIYAT KALITI

— Janob Lakner, Toshkent davlat agrar universitetining xalqaro hamkorlikni rivojlantirishda qaysi ustuvor yo'nalishlar muhim, deb hisoblaysiz?

— Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalari uchun xalqaro hamkorlik muvaffaqiyatning muhim omiliga aylangan. Bu jarayon nafaqat talabalar va professorlarning xalqaro maydonda tajriba o'rtirishini ta'minlaydi, balki ilm-fanning global muammolariga yechim topishda ulkan ahamiyatga ega. Menimcha, birinchi navbatda akademik mobillikni kengaytirish kerak – talabalarning xorijda o'qishi, professorlarning tajriba almashish jarayonlari rivojlanishi lozim. Shu bilan birga, ilmiy tadqiqotlarni xalqaro jurnallarda chop etish, qo'shma loyihalarda ishtirok etish talab etiladi. Universitet bu yo'nalishda katta salohiyatga ega: yangi laboratoriyalar, ta'mirlangan

yotoqxonalar, zamonaviy tajriba xo'jaligi, xalqaro talablarga javob beradigan infratuzilma — bularning barchasi universitetni xalqaro maydonda ishonchli hamkorga aylantiradi. Erasmus+, Stipendium Hungaricum kabi xalqaro dasturlarda faol ishtirok etish orqali universitetimiz jahon ta'lim olamiga yanada yaqinlashishi mumkin.

— O'zbekiston agrar ta'limi xalqaro miqyosda raqobatbardosh deb ayta olasizmi?

— Albatta. O'zbekistondagi agrar ta'lim tizimi so'nggi yillarda jadal rivojlanmoqda va xalqaro talablarga moslashmoqda. Men talabalarning bilim saviyasi va jamoada ishlash qobiliyatiga guvoh bo'ldim. Ular Yevropadagi ko'plab universitet talabalari bilan bemaol bellashishi mumkin. Ta'lim maskanining zamonaviy o'quv xo'jaliklari, laboratoriyalari, interaktiv o'quv usullari bu raqobatbardoshlikni yanada oshira-

di. Shu bilan birga, milliy qadriyatlariga asoslangan ta'limning ruhiy tarbiyasi – talabalarning mustahkam asosga ega bo'lishiga xizmat qiladi. Biroq bir muhim jihadni unutmaslik kerak: til muammosi. Ingliz tili bugun global muloqot vositasiga aylangan. Universitet talabalari va mutaxassislari ushbu tilni yuqori darajada o'zlashtirmas ekan, xalqaro loyihalarda ishtirok etishi, ilmiy maqola yozish yoki xorijdagi hamkorlar bilan muloqot qilishi juda qiyin bo'ladi. Shuningdek, rus tilini ham bilgan holda, mintaqa doirasidagi hamkorliklarni yanada rivojlantirish mumkin.

— Agrooliyoghlarda ta'lim jarayoniga qanday innovatsiyalar joriy qilish zarur, deb o'ylaysiz?

— Dunyo o'zgarimoqda va ta'lim ham shunga moslashmoqda. An'anaviy ma'ruza shaklidagi darslar albatta kerak, lekin talabalar faol ishtirok etadigan metodlar – seminarlar, guruh ishlari, keys-tahlillar,

loyiha asosida o'qitish kabi usullar natijadorlikni oshiradi. Universitet bu borada katta imkoniyatlarga ega, chunki amaliyotga asoslangan ta'lim bu yerda an'anaga aylangan. Bugun biz talabalarni nafaqat nazariy bilim, balki amaliyotga tayyorlashimiz shart. Bu degani – ularni raqamli texnologiyalar, axborot tizimlari, sun'iy intellekt, ma'lumot tahlili, agrotekniqa qurilmalar bilan ishlashga o'rgatishimiz kerak. Kelajakda agrar sohada raqobatbardosh bo'lish uchun har bir talabaning texnik, axborot va tahlil qobiliyati yetarli darajada bo'lishi shart.

▼ Қарор ва ижро

Жорий йил 26 майда Президентимиз раислигида ўтказилган видеоселектор йиғилишида мамлакатимизда мебелсозлик саноатини янада ривожлантириш имкониятларини кенгайтириш масалаларига алоҳида тўхталинди.

Давлатимиз раҳбари томонидан 2025 йил 27 майда имзоланган "Мебель ва ёғочсозлик саноатини ривожлантириш учун қўлай шарт-шароитлар яратишга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида"ги Қарорда ҳам мебель ишлаб чиқарувчилар фаолиятини қўллаб-қувватлаш, рақобатбардош махсулотлар ишлаб чиқариш ҳамда экспортни рағбатлантириш, шунингдек, соҳани ривожлантириш орқали аҳоли бандлигини таъминлаш ва даромадларини ошириш белгиланган.

Айтиш жоизки, мазкур қарор мебелсозлик соҳасида катта ислохотларни бошлаб берди. Эндиликда мебелсозликда хорижий сертификат харажатларининг ярми давлат томонидан қопланади ва экспорт ҳажми кескин оширилади. Қарорга мувофиқ, республикаимиздаги 15 та туман (шаҳар) мебелсозликка мослаштирилади.

Хусусан, вилоятимизнинг Ўрта Чирчиқ туманида ҳам бу борада салмоқли ишлар амалга оширилмоқда. Туманда мебель махсулотлари ишлаб чиқариш мақсадида қиймати 28,7 млрд. сўмлик лойиҳа ишга туширилиши натижасида 60 нафар иш ўрни яратилади.

— Айни пайтда туманимизнинг "Қорасув", "Тинчлик", "Файзобод" ва "Туркистон" маҳаллалари ҳудудларидаги 107 та хонадонда мебель ишлаб чиқариш мақсадида қиймати 28,7 млрд. сўмлик лойиҳа ишга туширилиши натижасида 60 нафар иш ўрни яратилади.

лойиҳалари амалга оширилиб, тижорат банклари орқали тадбиркорларга барча қўлайликлари билан 3 йилдан 5 йилгача муддатга 100 квадратдан 300 квадратгача берилади. Натижада 200 дан ортиқ хонадонлар кооперация орқали қамраб олинади, 250 нафардан ортиқ норасмий



“ҚОРАСУВ”ДА МЕБЕЛСОЗЛИК МАКТАБИ ЯРАТИЛМОҚДА



ишлаётган ишчилар легаллаштирилади. Бундан ташқари, 20 дан ортиқ янги савдо дўконлари ташкил этилиб, 800 га яқин иш ўринлари яратилади. Соҳада банд бўлган аҳоли 2 минг нафарга етиб, хонадонларнинг ўртача ойлик даромади 18-20 млн. сўмни ташкил этади.

— Маълумки, уй, офис, таълим ва тиббиёт муассасалари, кўйинги, одамлар яшайдиган, ишлайдиган ҳар қандай бинони мебелсиз тасаввур қилиб бўлмайди, — дейди "Жаннатмакон" МЧЖ раҳбари Раҳмон Отақулов. — Мебель нафақат қўлайлик, балки гўзаллик ва маданият рамзидир. Соҳадаги 10 йиллик фаолиятимиз даврида тажрибамиз ортди, махсулотимизнинг сифати юқорилади. Айни пайтда корхонамизда 200 дан зиёд турли мебель жихозлари ишлаб чиқарилмоқда. Сўнгги русум ва дизайндаги мебелларимиз юртимиз бозорларини тўлдириб, қўшни давлатларга ҳам экспорт қилинмоқда. Буларнинг барчаси Юртбошимиз

нинг соҳага қаратаётган эътибори ва яратилаётган имкониятлар натижасидир. Хабарингиз бор, авваллари қиз узатиш, уйлари жихозлаш учун қиммат нархга хорижнинг фалон корхонасида ишлаб чиқарилган мебеллар буюртма қилинарди. Бугун эса ўзимизнинг махсулот хорижникидан қолтирмайдиган даража етди. Ҳозир ҳам иланиш ва ўрганишда давом этяпмиз. Яқинда корхонамиз ишчи-ҳодимлари Туркия давлатида тажриба орттириб келишди. Юқоридаги қарорга кўра, келгусида хорижий мутахассислар юртимизга таклиф этилади. Бунда харажатларнинг тенг ярми давлат томонидан қопланиши белгиланган. Тез фурсатда 2 гектар майдонда Микромарказ фаолияти йўлга қўйилади. Эндиликда тадбиркор

лик билан шуғулланишда ҳеч қандай муаммоларга дуч келинмайди, барча ишлар марказлашган ҳолда амалга оширилади. Жумладан, МДС, МДФ хом ашёсининг сотуви, қирқиб бериш хизмати йўлга қўйилади.

Яна бир гап: сифатли махсулот учун энг сара хом ашё — ёғоч керак бўлади. Аммо айрим ҳолларда уларни харид қилишнинг имкони бўлмайди. Шу сабабли, ўзимиз мебелсозлик учун яхши саналган павлония дарахтини экиб қўрдик. Натижа биз кутгандек бўлмади. Сабаби, бу дарахт эркинликни севувчи, сувга эҳтиёжи юқори экан. Бу вазиятда хорижликларнинг тажрибасини ўргандик. Маълумки, Туркия давлатининг ўзига хос ўрмонзорлари мавжуд. Бироқ улар ўз яшил

худудларини сақлаб қолиш мақсадида Канададан бир қисм ўрмон майдонларини сотиб олишди ва ўша ҳудудни тозаллаб бериш шарт билан ёғоч хом ашёсини қайта ишлашди. Бу орқали улар қўшимча иш ўринлари ҳам яратишди. Мебелсозликда шу каби тажрибалардан фойдаланиш ўринли, деб ҳисоблайман.

Муҳим масалалардан яна бири — мутахассисларга эҳтиёж. Шу боис корхонамиз қошида "Устоз — шогирд" анъанасига таяниб, дуал таълим бўйича жами 48 нафар ўқувчини ишга қабул қилганмиз. Уларни ҳар томонлама қўллаб-қувватлаб тураемиз.

Эътиборлиси, Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йил 29 мартдаги "Профессионал таълим тизимида дуал таълимни ташкил этиш чора-тадбирлари тақдир қилинишига асосан тумандаги 2-сонли политехникумда ҳам тўқш-тиқиш жихозлари оператори ва мебель ишлаб чиқариш йўналишлари бўйича дуал таълим ташкил этилган. Унда 90 нафар ўқувчи тахсил олмоқда.

— 1-босқичдаги 30 нафар ўқувчимиз "Жаннатмакон мебель" корхонасига бириктирилди, — дейди политехникум директори ўринбосари Зулфия Каримова. — Ёшлар билан тадбиркор ўртасида дуал шартнома мавжуд. Унга кўра, ўқувчилар 1 миллион 500 минг сўмдан 4 миллион сўмгача маош олишмоқда.

Дарҳақиқат, бугунги кунда мебелсозлик нафақат хунармандчилик, балки миллий санъат ва замонавий саноатнинг уйғунлашувига айланди. Соҳага етарли эътибор қаратиш орқали экспорт имкониятлари кенгайиб, халқимизнинг турмуш маданияти яхшиланмоқда. Эндиликда давлат, хусусий сектор ва аҳоли ҳамкорлигида мебелсозлик саноати янада юксалишига шубҳа йўқ.

Нигора ЎРОЛОВА,
"Тошкент ҳақиқати"
муҳбири

Viloyat bo'ylab

ANGREN shahar ixtisoslashtirilgan maktabining 8- va 10-sinf o'quvchilari Ozodbek Shavkatov, Asilbek O'rolov va Muzaffar Abdumannobovlar "Ixtirochilikka qadam" tanlovining respublika bosqichida ishtirok etishmoqda. Ular tanlovining "Yashil" energiya yo'nalishiga o'zlarining "Sun'iy daraxt" loyihasini taqdim etishdi.

O'RTA CHIRCHIQ tumaniga Xitoy Xalq Respublikasining Shinjon-Uyg'ur o'lkasi Shandun provinsiyasi Xesze shahri rasmiy delegatsiyasi a'zolari tashrif buyurishdi. Mehmonlar tumandagi "Manayev agro klaster", "Fresh food pack" hamda "Qorasuv invest" korxonalarini fa

СИЗ ХАМ ЮРТНИНГ ПОСБОНИСИЗ, ЖУРНАЛИСТЛАР!



Вилоят ҳокимлиги томонидан ташкил этилган тадбирга матбуот, ахборот агентликлари, телевидение ва радио, интернет нашрларида фаолият кўрсатиб, мамлакатимиз ривожига ҳисса қўшиб келаётган соҳа хос-

билан очиб, соҳа ҳодимларини байрам билан самимий табриклади.

Кўпчилик журналистик фаолият ҳақида умумий маълумотга эга, холос. Аслида бу касб эгалари иш фаолияти жуда мураккаб,



димлари, ижтимоий тармоқ фаоллари, кўп йиллар давомида фидокорона меҳнат қилиб, бугунги кунда кексалик гаштини сураётган фахрий журналистлар ҳамда ёш ижодкорлар тақдир этилди.

Албатта, мамлакатимизда амалга оширилаётган ислохотлар мазмун-моҳиятини халққа етказиш, янгилаш, бунёдкорлик борасидаги ишларни кенг ёритишда оммавий ахборот воситалари ходимларининг муносиб ҳиссалари бор. Уларнинг жамият ҳаётидаги ўрни ва таъсирини, фаолият самарадорлигини янада ошириш, медиа тармоқларининг ҳуқуқий, моддий-техник базасини мустаҳкамлаш, журналист касбининг ижтимоий мақоми, нуфузини кўтариш, уларни моддий, маънавий рағбатлантириш йўлида катта ишлар амалга оширилмоқда.

Тантанали маросимни Тошкент вилояти ҳокими Зойир Мирзаев кириш сўзи

ҳар бир мақола ёки лавҳани тайёрлаш замирида қанча меҳнат ётишини англаш қийин эмас. Бугунги кунда журналистлар билан бир қаторда матбуот котиблари ва блогерларнинг фаоллиги ҳам ортиб бормоқда. Юртбошимиз ҳам уларнинг ҳаракатини ижобий баҳолаб, жамиятимизда учраётган муаммоларни ечишдаги фаолликларини алоҳида эътироф этмоқдалар.

Маросим давомида журналистика ривожига ҳисса қўшаётган, вилоят ҳаётини турли манбаларда ёритишда жонбозлик кўрсатаётган бир гуруҳ журналист ва блогерлар вилоят ҳокимлигининг эсдалик совғалари билан тақдирландилар.

Таниқли хонандалар ва ёш ижодкорлар томонидан тайёрланган концерт дастури барчага байрамона кайфият улашди.

Меҳриддин ИБРАГИМОВ,
“Тошкент ҳақиқати”
мухбири
Жалолиддин ЭСОНОВ
ошган суратлар

(Давоми. Бошланиши 1-саҳифада)

▼ Халқаро фестивалъ

Шарқ мумтоз музыка санъати ниҳоятда бой. Унинг асосини кўхна Шарқ элатлари мақомлари ташкил этади. Бу дурдоналар жаҳон майдонида алоҳида эътибор қозонмоқда. Ўрта асрларда кенг қўлланилган “Ун икки мақом” тизими сарой мусиқий ҳаётида бирлаштирувчи омил бўлган. Бир неча минг йиллик тарихга эга бу санъат ҳар бир халқнинг хусусиятларига мос равишда ривожланиб келмоқда.

Марказий ва Ғарбий Осиё, Мағриб ва Машриқ мамлакатлари мусиқа маданиятининг ажралмас қисми бўлган – мақом, мақом, муғом, дастгоҳ, нуба каби мақом турларининг ҳудудий ижрочилиги анъаналари, бадийий, илмий-иҷодий тафаккури бир-биридан фарқланади.

Мақомот бадийий-эстетик қийматини сақлаб қолган ҳолда ривожланиб бораётгани кувончлидир. Масалан, Озарбайжон миллий мусиқасининг етук жанри – муғомни олайлик. У ўзига хос куй, парда ва усул тизимига эгалиги билан аҳамиятлидир. Муғом асарлари одатда хонанда (ижрочи), тор (ёки соз) созадаси, каманча ва даф жўрлигида ижро этилади. 2003 йилда Озарбайжон муғоми халқаро ЮНЕСКО ташкилоти томонидан “Инсониятнинг оғзаки ва номоддий мерос дурдонаси” рўйхатига киритилган. Бу ўзбек миллий мусиқа санъатидаги умумий илдишларга эга.

Жорий йилнинг 17-22 июнь кунлари Боку шаҳрида “Муғом олами” VII халқаро мусиқа фестивали бўлиб ўтди. Бир қанча ташкилотлар ҳамкорлигида ўтказилган бу маданий тадбир Шарқ мусиқий меросини асраб-авайлаш ва тарғиб қилишда муҳим қадам бўлди. Фестиваль дастурига турли минтақавий ижрочилар иштирокидаги муғом концертлари, ёш истеъдодлар учун танловлар, маҳорат дарслари, сахна чиқишлари, халқаро симпозиум дастурлари киритилди. Айниқса, муғом ижрочилари томонидан ўтказилган “Муғом марафони” ва очилиш маросимидаги “Баёт” номли концерт иштирокчилар ва ихлосмандлар орасида катта қизиқиш уйғотди. Унда турли мамлакатлардан келган санъаткорлар “Баёт” мақоми асосидаги мусиқий композицияларни миллий услубда



ижро этиб, мақомотнинг минтақавий ва маҳаллий қирраларини намоён қилдилар. “Səpələnməş və toplanmış” номли концерт дастури мақом эстетикаси ва ўзининг кенг тарixий манзарасини акс эттирди. Фестиваль давомида “Муғом соати” таш-



and the Sufiyana Maqam: Points of Convergence” (Сафиуддин ал-Урмавий назарияси ва Сўфиёна Мақом: туташ нукталар) номли маърузаси орқали “Сафиуддин Урма-

вий назарияси билан Кашмир Сўфиёна калом мақом тизими ўртасидаги тузилмавий ва эстетик ўхшашликлар”ни илмий асосда таҳлил қилиб берди. Бу иштирокчиларда катта қизиқиш уйғотди. Айниқса, маърузадаги асл-фаръ, мутағаййир, интиқол, таркиб, мувозанат каби тушунарларнинг сўфий ҳол концепцияси билан яқинлиги ҳақидаги гипотезалари алоҳида эътироф этилди. Ёш тадқиқотчи олимпиа-

ТАФАККУР ДАРЁСИДАН СУВ ИЧГАН САНЪАТ

кил этилиб, тингловчиларга мақомнинг ижро маҳорати ҳақида қимматли маълумотлар берилди.

18-20 июнь кунлари бўлиб ўтган “Сафиуддин ал-Урмавий мероси: ўтмиш ва замонавийлик оралиғида” номли халқаро илмий симпозиум XIII асрда яшаб ижод қилган улғу мусиқа назарийчиси Сафиуддин ал-Урмавий меросини замонавий мусиқа тафаккури билан боғлашни мақсад қилган.

Илмий дастурда Ўзбекистон, Эрон, Туркия, Ҳиндистон, Хитой, Германия, АҚШ, Канада, Россия, Озарбайжон каби мамлакатлардан етакчи мусиқашунос олимлар, тадқиқотчилар қатнашдилар. Тадбирда Урмавий томонидан илгари сурилган мақом тизими, 12 шудуд ва 6 авазат назарияси, доиравий график модели, усул ва нота ёзуви, мақомлардаги модуляция жараёнлар ҳамда тафсирий-метафизик тушунчалар ҳақида кенг маълумот берилди.